

2025-yil davomida "O'zkiyosanoat" Ajning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqida HISOBOTI

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/anticorruption/report/2025-yil-davomida-uzkiyosanoat-azhning-korrupciya-faktlarig>

"O'zkiyosanoat" AJ tomonidan 2025-yil davomida korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Avvalo, korrupsiya holatlari haqida xabarlar kelib tushishini ta'minlash maqsadida barcha turdagi aloqa kanallari (*elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalar*) uzluksiz faoliyati ta'minlandi.

Ma'lumot uchun: Jamiyatning aloqa kanallari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari orqali kelib tushadigan murojaatlarni qabul qilish uchun Komplayens ichki nazorat tuzilmasidan mas'ul xodim tayinlanib, murojaat kelib tushganda mas'ul xodim tomonidan murojaatni tegishli reyestrda ro'yxatga olish tizimi yo'lga qo'yilgan. Xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushgan taqdirda, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

Korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida mas'ul xodim tomonidan kelib tushayotgan murojaatlar (xabarlar)ni haftalik tahlil qilishi amaliyoti yo'lga qo'yildi.

O'tgan davr mobaynida jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir bir qator murojaatlari turli kanallar orqali kelib tushdi (*shu jumladan, Jamiyat boshqaruvi raisi tomonidan jismoniy shaxslar hamda yuridik shaxslarning vakillari shaxsan qabul qilindi*).

Jumladan, 2025-yil mobaynida "O'zkiyosanoat" AJga jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar tomonidan jami **448 ta** murojaat kelib tushgan bo'lib, barchasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tog'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda tegishli qonun hujjatlariga muvofiq o'rganib chiqilib, murojaat qiluvchilarga tegishli huquqiy tushuntirish berildi.

Ma'lumot uchun: murojaatlarning hududlar kesimi bo'yicha tahlili quyidagicha:

Qoraqalpog'iston Respublikasi – **29**, - Andijon – **5**, Buxoro – **14**, Jizzax – **4**, Xorazm – **2**, Qashqadaryo – **107**, Navoiy – **134**, Namangan – **4**, Samarqand – **5**, Sirdaryo – **1**, Surxondaryo – **1**, Toshkent viloyati – **83**, Farg'ona – **29**, Toshkent shahri – **21**, xorijiy davlatlardan- **9 ta** murojaat.

Murojaatlarning mazmuniga ko'ra tahlili:

Homiylik yordami ko'rsatish yuzasidan – **70 ta**, ishga joylashish– **159 ta**, ish haqini oshirish va olish yuzasidan – **41 ta**, imtiyozli nafaqaga chiqish – **1 ta**, qonun va tartibbuzilishlar – **48 ta**, hamkorlik qilish – **8 ta**, mineral o'g'itlar sotib olish– **25 ta**, mineral o'g'itlar eksporti– **4 ta**, konvertatsiya masalasi – **1 ta**, boshqa masalalar bo'yicha – **91 ta** murojaat.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning **41 tasi** qonun va mehnat intizomi buzilishi yuzasidan bo'lib, tekshirishlarda shulardan **16 tasi** korrupsiyaga oid ("Dehqonobod kaliy zavodi" AJ – **5 ta**, "Navoiyazot" AJ – **7 ta**, "Maxam-Chirchiq" AJ – **1 ta**, "Ammofos-Maxam" AJ – **1 ta**, "Qo'ng'irotda soda zavodi" MChJ – **2 ta**) ekanligi aniqlandi.

Mazkur murojaatlar bo'yicha o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijasiga ko'ra, **11 nafar** ("Navoiyazot" AJ – **6 ta**, "Maxam-Chirchiq" AJ – **5 ta**) xodimga nisbatan intizomiy choralalar

ko'rildi.

Ma'lumot uchun: "Maxam-Chirchiq" Ajda **2 ta** holatda moddiy tovar boyliklarni kichik miqdorda yashirin olib chiqilgan, **1 ta** holatda oziq-ovqat mahsulotlari belgilangan me'yordan kam tarqatilgan. "Navoiyazot" Ajda **2 ta** holatda moddiy tovar boyliklarni kichik miqdorda yashirin olib chiqilgan. "Dehqonobod kaliy zavodi" Ajda

1 ta holatda davlat xaridi qonunchilik talablari buzilgan.

Kelgusida shu kabi korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida yuqoridagi holatlar "O'zkiyosanoat" AJ va uning tarkibiy korxonalarida rahbar va boshqaruv xodimlari ishtirokida yig'ilishlarda muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

Korrupsiya xatarlari mavjud bo'lgan yo'nalishlar, xususan, xaridlar bo'yicha, hamkorlar va iste'molchilarga mahsulotlarni yetkazib berish va xizmat ko'rsatish, mineral o'g'itlarni xarid qilish masalalari va boshqa yo'nalishlar ko'rib chiqilib, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, "O'zkiyosanoat" AJ va uning tarkibiy korxonalarida amalga oshiriladigan barcha jarayonlarni raqamlashtirish va inson omilini kamaytirish orqali korrupsion holatlarning oldini olishga alohida ahamiyat berildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-iyundagi **PQ-199**-son qaroriga asosan kimyo sanoatini diversifikatsiya qilish, tarmoqni raqamlashtirish hamda moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan.

Mazkur qaror ijrosiga muvofiq kimyo sanoatini raqamlashtirish maqsadida "O'zkiyosanoat" Ajda Analitik markaz faoliyati tashkil etildi.

Tizim korxonalari faoliyati shaffofligini ta'minlash maqsadida davlat hamda nodavlat tashkilotlarining (*solliq, mehnat, adliya, bank, moliya, birja, temiryo'l va h.k.*) elektron axborot platformalarini Analitik markazga integratsiya qilish natijasida ishlab chiqarish subyektlari, vakolatli omborlar, ekin maydonlari va fermerlar, xaridlar va birja savdolari, eksport va import, savdoga chiqarilgan mahsulotlar harakati, debitor va kreditor qarzdorlik, sarflanayotgan energoresurslar, manfaatlar to'qnashuvi, davlat xaridlarini nazorat qilish va shu kabi boshqa muhim tahliliy ma'lumotlarni onlayn tarzda monitoring qilish hamda istiqboldagi rejalarni belgilash imkoniyati yaratildi.

Bayon etilganlarga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish "O'zkiyosanoat" AJ faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib, korrupsiya faktlariga doir barcha murojaatlar (xabarlar) qat'iy nazoratga olinadi va tizimni korrupsiyasiz sohaga aylantirish bo'yicha doimiy ravishda zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

"O'zkiyosanoat" AJ Korrupsiyaga
qarshi kurashish va komplayens
boshqarmasi boshlig'i
M. Mavlyanov